



## THE ANTHROPOLOGY OF TERRORISM AND THE PHENOMENON OF VIOLENCE IN MODERN SOCIETY

**Jahongir Boybutayev**

*PhD, Associate Professor*

*Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** globalization, terrorism, violence, anthropology, identity, radicalization, digital terrorism, hate speech, ethno-terrorism.

**Received:** 19.06.26

**Accepted:** 20.06.26

**Published:** 21.06.26

**Abstract:** This article analyzes the anthropological essence of terrorism and violence phenomena in modern society. Terrorism is interpreted not only as a political or legal problem but also as a complex socio-cultural phenomenon related to human nature, identity crisis, social alienation, and radicalization processes.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA TERRORIZM ANTROPOLOGIYASI VA ZO‘RAVONLIK FENOMENI

**Jahongir Boybutayev**

*PhD, dotsent*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, terrorizm, zo‘ravonlik, antropologiya, identiklik, radikallashuv, raqamli terrorizm, nafrat nutqi, etnoterrorizm.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda terrorizm va zo‘ravonlik fenomenlarining antropologik mohiyati tahlil qilinadi. Terrorizm faqat siyosiy yoki huquqiy muammo sifatida emas, balki inson tabiati, identiklik inqirozi, ijtimoiy begonalashuv va radikallashuv jarayonlari bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etiladi.

## АНТРОПОЛОГИЯ ТЕРРОРИЗМА И ФЕНОМЕН НАСИЛИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

*Джахонгир Бойбутаев*

*PhD, доцент*

*Академия МВД Республики Узбекистан*

*Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> глобализация, терроризм, насилие, антропология, идентичность, радикализация, цифровой терроризм, язык вражды, этнотерроризм.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В данной статье анализируется антропологическая сущность явлений терроризма и насилия в современном обществе. Терроризм трактуется не только как политическая или правовая проблема, но и как сложное социокультурное явление, связанное с человеческой природой, кризисом идентичности, процессами социального отчуждения и радикализации.</p>
--	--

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda terrorizm va zo‘ravonlik fenomenlarini anglash nafaqat xavfsizlikni ta‘minlash, balki jamiyat barqarorligi va inson qadriyatlarini saqlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda terrorizm an‘anaviy siyosiy yoki harbiy to‘qnashuv shaklidan chiqib, inson ongi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy muhitga ta‘sir etuvchi murakkab antropologik fenomenga aylanmoqda. Shu bois uni ijtimoiy-falsafiy va antropologik jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Terrorizm ko‘p hollarda identiklik inqirozi, ijtimoiy begonalashuv, marginallashuv va ma‘naviy bo‘shliq natijasida shakllanadi. Ayniqsa, raqamli jamiyat sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual radikallashuv jarayonlari kuchaymoqda. Zo‘ravonlik ham nafaqat jismoniy, balki psixologik va axborot shakllarida ham namoyon bo‘lib, jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini shakllantirmoqda. Shu bois, zamonaviy terrorizmning transmilliy xususiyat kasb etishi uning ijtimoiy, madaniy va antropologik omillarini kompleks o‘rganishni talab qiladi. Terrorizm va zo‘ravonlikni antropologik yondashuv asosida tahlil qilish ularning kelib chiqish sabablari hamda inson ongi va jamiyat hayotiga ta‘sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Adabiyotlar sharxi.** Falsafiy antropologiya bo‘yicha izlanishlar olib borgan fransuz-amerikalik dinshunos va faylasuf olim Rene Jirarning “Zo‘ravonlik va muqaddaslik” kitobida “Odamlar osoyishtalik va xavfsizlikdan bahramand bo‘lib yashar ekan, qon ko‘zga ko‘rinmaydi. Zo‘ravonlik boshlangan zahoti esa qon ko‘rina boshlaydi; u oqadi va uni to‘xtatib bo‘lmaydi, u hamma yerga singib, betartib ravishda yoyilib, tarqalib ketadi. Uning oquvchanligi zo‘ravonlikning yuqumli tabiatini o‘zida mujassam etadi. Qonning mavjudligi – sodir etilgan qotillik belgisi va yangi fojialardan darakdir. Qon o‘zi tekkan har bir narsani zo‘ravonlik va o‘lim rangiga bo‘yaydi. Shuning uchun ham u “qasosga undaydi”” [1. – С. 49.] deyiladi. Rene

Jirar mazkur fikr orqali zo‘ravonlikni nafaqat jismoniy harakat sifatida, balki ijtimoiy munosabatlar, qo‘rquv, qasos bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab fenomen sifatida ochib beradi. Shu bilan birga, zo‘ravonlik yuqumli ekanligi, bir marotaba sodir etilgan zo‘ravonlik keyingi zo‘ravonlik uchun zamin yaratishi mumkinligi, bir qotillik ikkinchi qotillikni va bir adovat yangi adovatni keltirib chiqarishi ifodalanadi. Demak, jamiyatda zo‘ravonlik nazorat qilinmasa, u ommaviy tus olishi yoki “yuqumli” xususiyat kasb etishi mumkin. Natijada, jamiyatda xavf paydo bo‘ladi.

Zo‘ravonlik davriy xususiyatga ega bo‘lib, u nizo tug‘diradi – nizo esa, qasos hissini paydo qiladi – qasos esa, o‘z navbatida yangi zo‘ravonlikka sabab bo‘ladi (nizo – qasos – zo‘ravonlik). Bunday tizimli jarayon cheklanmasa, jamiyatda doimiy adovat muhiti saqlanib qoladi. Terrorizm ham aynan shunday psixologik va ijtimoiy mexanizmlar orqali kuchayib boradi. Terroristik harakatlar ko‘pincha o‘zlarini “adolat”, “qasos” yoki “himoya” kabi shiorlar bilan oqlaydilar. Tinch jamiyatda esa, aksincha insonlarni zo‘ravonlikni his qilishmaydi. Ammo, zo‘ravonlik boshlanganida u yashirin ko‘rinishdan ochiq holatga o‘tadi va butun ijtimoiy makonni qamrab olishi mumkin.

Terrorizm nafaqat sodir etilgan zo‘ravonlik, balki sodir etilishi rejalashtirilgan zo‘ravonlik – potensial zo‘ravonlik hamdir. Unga siyosiy jihat xos – bu zo‘ravonlik turi bo‘lib, uning vositasida jamiyat yetakchilari, fuqarolarning qarorlarini ijtimoiy meyorlar, turmush tarzi, maqsadlari, vazifalari asosida o‘zgartirishga urinishlar amalga oshiriladi va bu, yuqorida ta’kidlaganimizdek, psixologik zo‘ravonlikning ta’sirchan shaklidir [2. – C. 97.].

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, biror jamiyatda ayni bir guruhga mansub shaxslar o‘rtasida qandaydir nizo yuzaga kelsa, u asosan tinch yo‘llar bilan hal etiladi; aksincha, bu nizo turli guruhlariga mansub shaxslarni bir-biriga qarshi qo‘ysa, zo‘ravonlik tez-tez, hatto muqarrar tarzda namoyon bo‘ladi [3. – C 64-65.]. Denisov shu o‘rinda zo‘ravonlik muqarrarmi? degan haqli savol qo‘yadi va zo‘ravonlik inson tabiatiga xos deb faraz qilsak ham, uni yo‘q qilish insoniyatning eng buyuk yutuqlaridan biri bo‘lar edi deydi.

Bugungi raqamli va globallashtirilgan jamiyatda zo‘ravonlik media, internet, ijtimoiy tarmoqlar va axborot urushlari orqali keng ko‘lamda tarqalmoqda. Rene Jirar ta’kidlagan “yuqumli zo‘ravonlik” ayniqsa, hozirgi axborot jamiyatda radikal kontent, agressiv (nafrat) nutq, virtual qasos olish ko‘rinishida yanada kuchayib, ijtimoiy agressiyani shakllantirmoqda. Xuddi, ingliz faylasufi Tomas Gobbs o‘zining “Fuqaro haqida” deb nomlangan asarida aytganidek: “Inson inson uchun shafqatsiz bo‘ri” [4. – P. 4.].

Tomas Gobbsning fikriga ko‘ra, qo‘rquv, raqobat va manfaatlar to‘qnashuvi insonning tabiatiga xos ekanligini ko‘rsatadi. Agar jamiyatda ijtimoiy tartib va nazorat zaiflashsa, unda

xaos va agressiya kuchayadi. Zamonaviy axborot jamiyatida esa bu jarayon raqamli texnologiyalar ta'sirida yanada murakkab tus oladi. Zo'ravonlik bir inson yoki muayyan guruh doirasida cheklanib qolmay, butun ijtimoiy muhitga tarqaladigan murakkab fenomen hisoblanadi. Shu bois terrorizm va zo'ravonlikka qarshi kurash faqat siyosiy yoki harbiy choralar bilan cheklanmasdan, ma'naviy, madaniy va ijtimoiy yondashuvlarni ham talab etadi.

Zamonaviy terrorizmni o'rganishda shakllangan "Critical Terrorism Studies" ("Terrorizmni tanqidiy o'rganish") yo'nalishi ham terrorizmni nafaqat xavfsizlikka tahdid, balki inson ongi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy muhit bilan bog'liq antropologik fenomen sifatida tahlil qiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi K.Igayevaning ta'kidlashicha, mazkur yo'nalish Mishel Fukoning "hokimiyat-bilim" konsepsiyasiga tayanib, "terrorizm" tushunchasining o'zi ham muayyan siyosiy va mafkuraviy manfaatlar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan terrorizm haqidagi bilimlar neytral emas, balki xavfsizlik diskursi orqali jamiyat ongini boshqarish va "dushman obrazi"ni yaratish vazifasini bajaradi. Muallifning fikricha, "terrorizm" atamasi ko'p hollarda dissiplinar funksiyani bajarib, davlat siyosati va xavfsizlik mexanizmlarini legitimlashtirish vositasiga aylanadi [5. – C. 413.]. Shuningdek, u "radikal boshqa" ("Other") obrazining shakllanishiga e'tibor qaratib, terrorizmni faqat nodavlat radikal guruhlar bilan cheklemasdan, davlat zo'ravonligi, harbiy intervensiyalar va nazorat mexanizmlarini ham "davlat terrorizmi" doirasida ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida "terrorchi" obrazi diniy fanatik va sivilizatsiyaga tahdid sifatida talqin qilinishi jamiyatda "Biz" va "Ular" qarama-qarshiligini kuchaytirayotganini antropologik jihatdan ham tahlil qilib beradi [5. – C. 415.]. Bu esa, o'z navbatida terrorizmni tushunishda ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik, tarix, antropologiya kabi tadqiqotlar yondashuvlarini birgalikda qo'llash zarurligini asoslaydi.

**Muhokama va natijalar.** Mazkur yondashuv terrorizm va zo'ravonlik fenomenlarini faqat huquqiy yoki siyosiy kategoriya sifatida emas, balki inson ongi, identiklik va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq murakkab antropologik hodisa sifatida tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli va globallashgan jamiyat sharoitida media, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal g'oyalar, nafrat nutqi va virtual zo'ravonlikning tarqalishi terrorizmning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Natijada inson ongida qo'rquv, ishonchsizlik va "begona"ga nisbatan dushmanlik kayfiyati shakllanib, jamiyatda ijtimoiy parokandalik kuchaymoqda.

Shu nuqtai nazardan, terrorizmning antropologik mohiyatini tahlil qilish insonning zo'ravonlikka moyilligi, ijtimoiy begonalashuv, identiklik inqirozi va radikallashuv jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki terrorizm ko'p hollarda ma'naviy bo'shliq, adolatsizlik hissi, ijtimoiy tengsizlik va madaniy qarama-qarshiliklar ta'sirida shakllanadi.

Demak, zamonaviy jamiyatda terrorizm va zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat kuch ishlatish yoki xavfsizlik choralari bilan cheklanmasdan, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy va ijtimoiy yondashuvlarni ham qamrab olishi lozim.

Chunki bugun globallashuv jarayonlari, ijtimoiy tengsizlik, etnomilliylik va identiklik inqirozi terrorizmning kuchayishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, etnoterrorizm muayyan etnik guruhning “milliy orzu”, “tarixiy adolat” yoki “etnik ustunlik” g‘oyalari asosida zo‘ravonlikni legitimlashtirishi bilan xavfli tus olmoqda. Shu nuqtayi nazardan terrorizm faqat jismoniy zo‘ravonlik emas, balki etnik stereotiplar, “begona” obrazi va ijtimoiy qo‘rquv orqali shakllanuvchi ma‘naviy-psixologik fenomen sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy jamiyatda etnik identiklikni mutlaqlashtirish, “Biz” va “Ular” qarama-qarshiligini kuchaytirish hamda tarixiy adovat va ksenofobiyani saqlab qolish terrorizm uchun ijtimoiy muhit yaratadi. Zygmunt Baumanning “individuallashgan jamiyat” haqidagi qarashlariga tayanib aytganda, zamonaviy dunyoda davlat va jamiyat avtoritetining susayishi, ijtimoiy parokandalik va ma‘naviy bo‘shliq radikal g‘oyalarning tarqalishiga olib kelmoqda. Shu sababli terrorizmga qarshi kurashda faqat kuch ishlatish emas, balki madaniyatlararo muloqot, etnomadaniy kompetentlik va “yumshoq integratsiya” mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir. Bu esa, terrorizm va zo‘ravonlikni faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridan emas, balki inson ongi, identiklik va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq antropologik fenomen sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan: “Terrorizm ijtimoiy va etnomadaniy paradokslar, ijtimoiy va huquqiy tengsizlik, davlat va jamiyat institutlaridan begonalashuv va etnik ustunlik pozitsiyasini tasdiqlash bilan belgilanadigan ziddiyatlar konfiguratsiyasida shakllanadi” [6. – C. 99-105.]. Bu terrorizmning ildizlari ijtimoiy begonalashuv, etnik ustunlik g‘oyasi va adolatsizlik hissi bilan bog‘liq ekanini anglatadi. Demak, zamonaviy jamiyatda terrorizm va zo‘ravonlikka qarshi kurash nafaqat siyosiy yoki harbiy choralar, balki ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy va ijtimoiy yondashuvlarni ham talab etadi.

**Xulosa qilib aytganda,** zamonaviy jamiyatda terrorizm va zo‘ravonlik inson tabiati, ijtimoiy munosabatlar hamda madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab fenomen hisoblanadi. Globallashuv va raqamlashuv sharoitida radikal g‘oyalar, nafrat nutqi va virtual zo‘ravonlikning kengayishi jamiyatda qo‘rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy begonalashuvni kuchaytirmoqda. Natijada terrorizm nafaqat xavfsizlikka, balki inson qadriyati, ma‘naviy muhit va ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois terrorizm va zo‘ravonlikka qarshi kurashni faqat siyosiy yoki harbiy choralar bilan cheklash mumkin emas. Ularning oldini olishda inson ongini sog‘lomlashtirish, ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda ijtimoiy adolatni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Terrorizmning antropologik mohiyatini chuqur anglash esa uning kelib chiqish sabablarini to'g'ri baholash va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki inson ongi va jamiyat ma'naviy muhitini sog'lomlashtirmasdan turib, zo'ravonlik va radikallashtiruvning oldini to'liq olish mumkin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Жирар Рене. Насилие и священное /Перевод с французского Г. Дашевского. Изд. 2-е, испр. — М.: Новое литературное обозрение, 2010.— С. 49.
2. Щепланова В.В. (2010). Феномен терроризма в ракурсе рисков социальных изменений. Журнал социологии и социальной антропологии, 13 (2), – С. 97.
3. Денисов, В. П. (2008). Социо-антропологические аспекты природы насилия. Сибирский торгово-экономический журнал, (5), – С 64-65.
4. Thomas Hobbes. Philosophicall Rudiments Concerning Government and Society (De Cive). – London: Printed by F. G. for R. ROYSTON, at the Angel in Ivie-lane, 1651. – P. 4.
5. Игаева К. В. Критические исследования терроризма и антропология насилия // Диалог со временем. 2018. Вып. 65. – С. 413.
6. Гурба В.Н., Римский А.В. 2021. Этнокультурные механизмы формирования терроризма в современном мире. НОМОТНЕТІКА: Философия. Социология. Право, 46 (1): – С. 99-105.